



“TASDIQLAYMAN”

Samarqand MGQE boshlig‘i v.b.

S.Yu. Nematullayev

“13” 11 2024 yil

**Samarqand Markaziy geologiya qidiruv ekspeditsiyasi Zarafshon DESi
xodimlari safida o‘tkazilgan davra suhbat**

B A Y O N N O M A S I № 29

13.11.2024 yil

Karmana tumani
Olovyanka qo‘rg‘oni

Qatnashdilar: O.O. Eshniyozov - Samarqand MGQE bosh muhandisi

-Zarafshon DE ishchi xizmatchilari, jami 35 nafar xodim.

-Navoiy viloyati Karmana tumani ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi xodimi katta leytenant Qalandarov Oybek Olimovich.

Mavzu: “9-dekabr Butun jahon korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”

(“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ tomonidan taqdim etilgan elektron targ‘ibot materiallaridan foydalanildi).



Davra suhbatini Samarqand MGQE bosh muhandisi O.O.Eshniyozov ochib, kun tartibini e‘lon qildi va kun tartibidagi masala yuzasidan ya‘ni “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ va Samarqand MGQEda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida xususan, jamiyatning manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish haqidagi Siyosati, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Siyosati, Axloq kodeksi to‘g‘risida ma‘lumot berdi va korrupsiya holatlarining har qanday ko‘rinishiga ishchi-

xodimlarda murosasizlik hissini uyg'otish zarurligini, bu illatga qarshi kurashishda barcha ishchi-xodimlar mas'ul ekanligini ta'kidladi.




Kun tartibidagi masalalar yuzasidan Navoiy viloyati Karmana tumani IIO FMB xodimi katta leytenant O.O. Qalandarov o'z so'zida, korrupsiyaga qarshi kurash yo'nalishida milliy qonunchilik bazasining rivojlanish bosqichlari, korrupsiyaviy xavf, korrupsiyaviy o'zgaruvchanlik tushunchalariga izoh berdi. Ushbu yo'nalishda ma'muriy va jinoiy Kodekslarga kiritilayotgan o'zgarishlar, ushbu huquqbuzarliklarni sodir etayotgan shaxslarga nisbatan qo'llanadigan ma'muriy va jinoiy jazo turlari, ushbu jinoyatlarning ijtimoiy xavfi borasida tushuntirdi. Jinoyatga jazo muqarrarligi tamoyili va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksinig 167, 168, 192, 205, 209, 214, 243 va 301-moddalarida nazarda tutilgan jazo turlari haqida batafsil ma'lumot berdi.



Davra suhbatida Samarqand MGQE topshiriqlarning ijrosini nazorat qilish bo'yicha inspektori A.B.Olmasov, Zarafshon DE yetakchi geologi N.Abdiyev, ATU boshlig'i M.Alimovlar ham o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

**Toshiriqlarning ijrosini nazorat
qilish bo'yicha inspektor**

“ 13 ” 11. 2024 yil.



A.B.Olmasov